O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:94(574+575):636.1

Abdullo Y. RAIMOV,
Tayanch doktorant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O‘zbekiston
E-mail: abdullaraimov975@gmail.com, ORCID: 0009-0007-7542-2290

ATMU professori, PhD B.Axmedov taqrizi asosida

MARKAZIY OSIYODA YILQICHILIK: TARIXIY YO‘L VA QIYOSIY TAHLIL (1925–1991)

Annotatsiya

Maqolada 1925–1991-yillarda O‘rta Osiyo respublikalarida yilqichilikning rivojlanish yo‘li qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy va qiyosiy usullar qo‘llanib, o‘quv qo‘llanmalar va doktorlik dissertatsiyasi ma’lumotlari solishtirildi. Natijalar 1924/25-yilda O‘zbekiston SSR qorabayir yo‘nalishidagi ot zavodini qabul qilganini, 1927–1932-yillarda traktor ulushi 0,3 foizdan 22 foizgacha oshib, otga ehtiyoj kamayganini ko‘rsatdi. 1972-yilda O‘zbekistonda 117,5 ming bosh ot hisobga olingan, bu Qirg‘izistondan 2,3 baravar kam, Tojikistondan 2,5 baravar ko‘p.

Kalit so‘zlar: Yilqichilik, O‘rta Osiyo, qorabayir zoti, ot zavodi, qiyosiy tahlil, ot zotlari, sovxoz.

ИСТОРИЯ КОНЕВОДСТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ ПУТЬ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ (1925–1991)

Аннотация

В статье на основе сравнительного анализа рассматривается развитие коневодства в республиках Средней Азии в 1925–1991 годах. Применены историко-аналитический и сравнительный методы; сопоставлены данные учебных пособий и докторской диссертации. Результаты показывают, что в 1924/25 году Узбекская ССР приняла конный завод карабаирского направления, а рост доли тракторов с 0,3 до 22 процентов в 1927–1932 годах снижал потребность в лошади. В 1972 году в Узбекистане насчитывалось 117,5 тыс. голов, что в 2,3 раза меньше, чем в Киргизии, и в 2,5 раза больше, чем в Таджикистане.

Ключевые слова: Коневодство, Средняя Азия, карабаирская порода, конный завод, сравнительный анализ, породы лошадей, совхоз.

THE HISTORY OF HORSE BREEDING IN CENTRAL ASIA: THE HISTORICAL PATH AND COMPARATIVE ANALYSIS (1925–1991)

Annotation

This article examines the development of horse breeding in the Central Asian republics in 1925–1991 through comparative analysis. Historical-analytical and comparative methods were applied to data from textbooks and a doctoral dissertation. The results show that in 1924/25 the Uzbek SSR received a stud farm of the Karabair type, while the tractor share rising from 0.3 to 22 percent in 1927–1932 reduced the demand for horses. In 1972 Uzbekistan had 117.5 thousand horses, which is 2.3 times fewer than in Kyrgyzstan and 2.5 times more than in Tajikistan.

Key words: Horse breeding, Central Asia, Karabair breed, stud farm, comparative analysis, horse breeds, state farm.

Kirish. Yilqichilik chorvachilikning qadimiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, O‘rta Osiyo xalqlari hayotida ot minish, yuk tashish, dala ishlari va harbiy ehtiyojlar uchun doimo muhim o‘rin tutgan. Bugungi kunda ham bu soha davlat e’tiboridan chetda emas. Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori sohada muhim dasturilamal sifatida baholanadi [10]. Qaror normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda qorabayir va axaltekin zotli nasldor va sportchi otlarni ko‘paytirishga qaratilgani qayd etilgan [14]. Shu bilan birga yilqichilikning bugungi holatini to‘liq tushunish uchun uning XX asrdagi tarixiy yo‘lini, ayniqsa O‘rta Osiyo respublikalari bilan qiyosiy kontekstda ko‘rib chiqish zarur.

Mavjud adabiyotlarda. O‘zbekiston yilqichiligi ko‘pincha alohida zot yoki alohida ot zavodi doirasida o‘rganiladi, O‘rta Osiyo respublikalarining yilqichilik tizimlari esa o‘zaro solishtirilmaydi. Maqolaning maqsadi 1925–1991-yillar davrida O‘rta Osiyoda yilqichilikning rivojlanish yo‘lini qiyosiy tahlil orqali yoritish, O‘zbekiston yilqichiligining mintaqadagi o‘rnini ko‘rsatishdir. Maqsadga erishish uchun uchta vazifa qo‘yildi: O‘zbekiston yilqichiligining 1920-yillardagi boshlang‘ich zaminini aniqlash; 1930–1941-yillarda sohadagi tashkiliy o‘zgarishlarni O‘rta Osiyo miqyosida tahlil qilish; 1960–1970-yillardagi otlar soni va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini respublikalar bo‘yicha solishtirish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek va rus tillaridagi adabiyotlarda yilqichilik asosan zotshunoslik va zootexnika nuqtayi nazaridan yoritilgan. Mukhtorov va To‘raqulovning 1974-yilda Toshkentda nashr etilgan «Yilqichilik» o‘quv qo‘llanmasi sohaning 1970-yillardagi holatini, jumladan SSSR miqyosidagi ot sonlari, ot zavodlari va chet elga savdo ko‘rsatkichlarini beradi [1]. Shu mualliflarning «Mahsuldor yilqichilik» kitobi esa ot go‘shti va qimiz ishlab chiqarishga bag‘ishlangan[2]. Тошкент: Ўзбекистон, 1974). Xolmirzaevning 1988-yilda nashr etilgan amaliy qo‘llanmasida SSSR Qishloq xo‘jaligi ministrligining 1971-yildagi qarori bilan ot zotlarini respublikalar bo‘yicha rayonlashtirish masalasi ko‘rsatilgan[3]. Xuddi shu muallifning 1996-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi esa O‘zbekistonda mahsuldor yilqichilikni rivojlantirishning ilmiy asoslarini

o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Qirg‘iziston va O‘rta Osiyo bo‘yicha qiyosiy ma’lumotlar ham keltirilgan [4].

Qorabayir zotining o‘zi haqida «Bolshaya sovetskaya entsiklopediya»dagi maqolada u O‘zbekistonda qadimiy o‘rta osiyolik arg‘umoqlarni mongol, turkman va arab zotlari bilan yaxshilash asosida yaratilgan, minish va yuk tashishga mos mahalliy zot sifatida ta’riflanadi [8]. Zotga oid maxsus asarlar sifatida Shchekin va Vixrevning 1947-yilda Toshkentda chop etilgan «Karabair» kitobi [12] hamda Lixovning 1982-yilda «O‘zbekiston» nashriyotida chiqqan qorabayir zoti davlat naslchilik kitobining IV tomi [13] qayd etiladi. Nurmatov va Hafizov esa qorabayir zotini «O‘zbekistonning oltin fondi» deb atab, uning genetik xilma-xilligi masalasiga e’tibor qaratgan [9]. Shunday qilib, mavjud ishlarda zotshunoslik va zootexnik jihatlar yaxshi yoritilgan, ammo yilqichilik sohasining O‘rta Osiyo respublikalari bilan qiyosiy tarixi yetarli o‘rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ikkilamchi manbalarga, ya’ni nashr etilgan o‘quv qo‘llanmalar, doktorlik dissertatsiyasi, ensiklopediya maqolasi va rasmiy axborot manbalariga tayanadi. Birlamchi arxiv hujjatlaridan faqat 1925–1941-yillarga oid va O‘zbekistondan tashqari hududlarga daxldor qiyosiy ma’lumotlar olindi. Yondashuv induktiv: alohida respublikalar va yillar bo‘yicha faktlar to‘planib, ulardan umumiy xulosalar chiqarildi. Tarixiy-tahliliy usul voqealarni davr va joy bo‘yicha aniqlash, qiyosiy usul esa O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan solishtirish uchun qo‘llandi.

Tadqiqotning ishonchliligi manbalarning aniq betlariga havola qilish orqali ta’minlandi: har bir raqam va hodisa o‘z manbasi va beti bilan ko‘rsatilgan. Muallifning o‘z hisob-kitoblari «muallif hisobi» deb alohida belgilandi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, manbalar turli yillarga oid va bir-biriga to‘liq mos kelmaydi: masalan, 1972-yilgi jadvalda respublikalar yig‘indisi SSSR bo‘yicha jami ko‘rsatkichdan 2,0 ming bosh farq qiladi. O‘zbekiston bo‘yicha manbalar taqqoslash alohida yillar kesimida olib borildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston yilqichiligining Sovet davridagi tashkiliy asosi milliy chegaralanish davrida qo‘yilgan. 1924/25-yilda O‘zbekiston SSR Turkiston respublikasidan sofqon qorabayir yo‘nalishidagi 50 bosh biyadan iborat ot zavodini qabul qilib olgan. Aynan shu yili qoplash punktlari tarmog‘ini tashkil etishga kirishilgan va respublika yilqichiligining istiqbollarini aniqlash yo‘lga qo‘yilgan [7]. Bu holat yilqichilik O‘zbekistonda bo‘sh joyda emas, Turkiston respublikasining tayyor naslchilik bazasi negizida boshlanganini ko‘rsatadi.

1926/27-yilda O‘zbekiston ot zavodi O‘rta Osiyodagi boshqa ot zavodlari bilan Frunze (Qirg‘iziston) va Toshkent shaharlari ipodromlarida bellashgan. Sinov natijalariga ko‘ra zavod otlarining holati ajoyib, chopqirligi esa to‘la yetarli deb topilgan va bu zavodni O‘rta Osiyo zavodlari orasida so‘nggi o‘ringa qo‘ymagan [6,7]. Qiyosiy nuqtayi nazardan Frunze ipodromi O‘zbekiston yilqichiligi uchun mintaqaviy darajadagi tashqi o‘lchov maydoni bo‘lgan: respublika ichidagi baholashdan farqli o‘laroq, bu yerda zot boshqa respublikalar mahsuloti bilan bevosita taqqoslangan. 1928/29-yilga oid bayonda Yer ishlari komissarligi ingliz-qorabayir duragaylarini nafaqat xo‘jalik ehtiyoji, balki ayniqsa Qizil Armiya otliq qismlarini ot bilan ta’minlash uchun ideal minish oti deb baholagan; yaxshilovchi zotlar qatorida turkman va yo‘mut ayg‘irlari ham ko‘rsatilgan [7] . Demak, O‘zbekiston yilqichiligi Turkmaniston zotlari genofondi (zotning irsiy zaxirasi) bilan ham bog‘langan.

1927–1932-yillar O‘rta Osiyo dalalarida mexanizatsiyaning kirib kelish davri bo‘ldi. Yershova, Shchekin va Samodelkinning 1934-yilda e’lon qilingan ishiga ko‘ra, 1927-yilda hali birorta mashina ishlamagan, barcha ishlar ot, ho‘kiz va tuya kuchi bilan bajarilgan. 1928-yilda tortish kuchining umumiy miqdorida traktorlar 0,3 foizni, jonli kuch 99,7 foizni tashkil etgan; 1929-yilda traktorlar ulushi 3 foizga, 1932-yilda 22 foizga yetgan [4]. To‘rt yil ichida bunday o‘sish ishchi otga talabning pasayishi 1930-yillar boshidayoq boshlanganini ko‘rsatadi.

Shu yillarda sohaning boshqaruv shakllari ham o‘zgardi. 1932-yilda O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (Ekoso) Prezidiumi Qirg‘iziston hududidagi Narin ot sovxozini maydalash topshirig‘ini bergan va sovxozlarni qayta tashkil etishni 1932-yil ichida tugatishni buyurgan [5]. Bu ishda asosiy e’tibor Stalinning «olti sharti»ni bajarishga qaratilishi kerak edi [5]. Qarorning partiya-ommaviy ishga oid bandi O‘rta Osiyo respublikalari partiya markaziy qo‘mitalari bilan bir qatorda Qirg‘iziston viloyat partiya qo‘mitasiga (Kirobkom) ham qaratilgan [5]. Narin sovxozini maydalash to‘g‘risidagi topshiriq 1930-yillar boshida haddan tashqari yirik tashkil etilgan ot sovxozlarini boshqarish qiyin bo‘lganini ko‘rsatadi. Turkmaniston bo‘yicha esa 1932-yilda Ekoso Prezidiumi Konevodtrestning Turkmanistonga yem tashish masalasini ko‘rib chiqqan va O‘rta Osiyo temir yo‘li direksiyasiga trest tashiyotgan dag‘al xashakni o‘z vaqtida yetkazishni topshirgan [5]. Dag‘al xashakning temir yo‘l orqali tashilishi trestning u yerdagi ehtiyojlari mahalliy yem-xashak bilan qoplanmaganini ko‘rsatadi.

Hududi aniqlanmagan sovxozlar haqida ham ma’lumotlar mavjud. 1932-yil yozidagi tekshiruvda bahorgi ekin ishlari 41, 70 va 83-sonli sovxozlarda barbod bo‘lgani, 69, 70, 82 va 83-sonli sovxozlarda pichan o‘rimi mutlaqo qoniqarsiz o‘tkazilgani aniqlangan [5]. 69 va 70-sonli ot sovxozlariga atrofdagi kolxozlar va yakka xo‘jaliklardan dag‘al xashakni o‘zlari tayyorlashni kuchaytirish topshirilgan [5]. Naslchilik ishida ham muammolar qayd etilgan: 1931-yilda 41, 54, 68 va 70-sonli sovxozlarda toylash yomon o‘tgan hollar ulushi yuqori bo‘lgan, 1932-yilda ikkita tuyachilik sovxozida qochirish mavsumi barbod bo‘lgan, 53-sonli sovxozda esa nasl beruvchi erkak hayvonlarga beparvo munosabat tufayli ulardan 16 tasi nobud bo‘lgan[5].

Yilqichilik sohasida respublikalararo bellashuv 1941-yilda ham davom etgan. 1941-yil 7-aprelida Toshkentda O‘zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissarligi Yilqichilik boshqarmasi viloyat boshqarmalariga yo‘llagan xatida shu yili Tojikiston SSR Yilqichilik boshqarmasi bilan sotsialistik musobaqaga kirishgani ma’lum qilingan. O‘zbekiston boshqarmasi o‘z tizimi bo‘yicha musobaqani keng yoyish majburiyatini ham o‘z zimmasiga olgan, quyi bo‘g‘inlardan tuzilgan shartnoma nusxasini 25-apreldan kechiktirmay yuborish talab qilingan [6]. Shu tariqa viloyatlar oldiga qo‘yilgan majburiyatlar ikki respublika o‘rtasidagi bellashuvning quyi bo‘g‘ini sifatida shakllantirilgan.

1960–1970-yillar yilqichilikda boshqa yo‘nalishdagi o‘zgarishlar davri bo‘ldi. A. Akibayev tadqiqotiga ko‘ra, Qirg‘izistonda otlar soni 1916-yilda 708 ming boshni, 1960-yilda urushdan keyingi tiklanish natijasida 496,7 ming boshni tashkil etgan, 1965-yilda qishloq xo‘jaligining texnik jihozlanishi va armiyaning otga ehtiyoji kamayishi oqibatida atigi 230 ming bosh qolgan. 1981-yilda respublika rahbariyati yilqichilikni rivojlantirish choralarini ko‘rgan va 1984-yilda 270,8 ming bosh ot hisobga olingan [4]. 1960–1965-yillarda Qirg‘izistonda otlar 53,7 foizga, O‘zbekistonda shu yillarda 42,4 foizga kamaygan. Qirg‘izistonda 1972-yilda 271,0 ming bosh ot bo‘lgani [1] Akibayevning 1984-yilgi raqamiga deyarli teng.

1-jadval.

1972-yilda SSSR va O‘rta Osiyo respublikalarida otlar soni va qulun olish ko‘rsatkichlari

Hudud	Otlar soni (ming bosh)	Ishchi otlar	Har 100 bosh biyadan olingan qulun, bosh
SSSR (jami)	7319,7	60,4	35,7
Qozog‘iston	1266,1	29,4	64,7
Qirg‘iziston	271,0	36,5	60,6
O‘zbekiston	117,5	38,1	54,4
Tojikiston	46,8	21,7	56,2
Turkmaniston	16,2	28,0	42,7

1972-yilda Sovet Ittifoqida jami 7319,7 ming bosh ot hisobga olingan, shundan Qozog‘istonda 1266,1 ming, Qirg‘izistonda 271,0 ming, Tojikistonda 46,8 ming, Turkmanistonda 16,2 ming bosh. Har 100 bosh biyadan Qozog‘istonda 64,7, Qirg‘izistonda 60,6, Tojikistonda 56,2, Turkmanistonda 42,7, butun Ittifoq bo‘yicha 35,7 qulun (ot bolasi) olingan [1]. O‘zbekistondagi 117,5 ming bosh ot Qirg‘izistondan 2,3 baravar kam, Tojikistondan 2,5 baravar ko‘p.

Ot savdosi va mahsulot ishlab chiqarishda ham mintaqa ulushi cheklangan edi. 1962–1968-yillarda Sovet Ittifoqining g‘arbiy rayonlaridan Italiyaga 65,2 ming, Fransiyaga 52,4 ming, Gollandiyaga 47,2 ming, boshqa mamlakatlarga 6,4 ming bosh ot sotilgan; sakkizinchi besh yillikda chet elga sotilgan otlar 140 ming boshdan oshgan. 1966–1969-yillarda SSSR ot zavodlari 89 million so‘m foyda keltirib, rentabelligi 15,5 foizdan 22,1 foizga oshgan [1]. 1971-yilda mamlakat kolxoz va sovxozlari davlatga 92 ming tonna ot go‘shti (290 ming bosh) topshirgan [2]. SSSRda 1966–1967-yillarda 18–19 ming tonna, 1968-yilda 24 ming tonna qimiz tayyorlangan; uning 94 foizi Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Boshqirdistonga to‘g‘ri kelgan [2]. O‘zbekistonning 1969-yilgi 3,4 ming tonna ot go‘shti ittifoq hajmining 4 foiziga ham yetmaydi, 1975-yilga rejalangan 520 tonna qimiz esa ittifoqdagi 24 ming tonnaning 2,2 foizi. Otlar chet elga mamlakatning g‘arbiy rayonlaridan sotilgan. Zotchilik siyosatida respublikalar o‘rtasidagi farq 1971-yilda yaqqol ko‘rindi. SSSR Qishloq xo‘jaligi ministrligining 394-qarori bilan ot zotlari rayonlashtirilgan: Tojikiston SSRda loqay va qorabayir, Turkmaniston SSRda axalteke va yo‘mut, Qozog‘iston SSRda jabe va adayev tiplari, kushum hamda kustanay, Qirg‘iziston SSRda yangi qirg‘iz, don va sofqon minish zotlari belgilangan; RSFSRda ot zotlarini 10 ta zonaga bo‘lish rejalashtirilgan [3]. 1974-yilgi qo‘llanmaga ko‘ra, qorabayir zoti O‘zbekistondan tashqari Tojikistonning janubidagi 152-ot zavodida ham urchitilgan [1]. Qorabayir zoti ikki respublika uchun rayonlashtirilgani uning mintaqaviy ahamiyatini ko‘rsatadi. Zotning o‘zi haqida ensiklopediya maqolasida u o‘rta bo‘yli, qo‘polroq tuzilishli, kulrang, qora-qo‘ng‘ir yoki qizil rangli, kamdan-kam qora ot sifatida ta’riflanadi; zotda uch tip ajratiladi: og‘irroq, aravaga yaqin tip, minish tipi va minish-yuk tashish tipi. Birinchi tipdagi otlar asosan sug‘oriladigan dehqonchilik vodiylarida, ikkinchi va uchinchi tiplar O‘zbekiston va Tojikistonning tog‘li hududlarida urchitiladi [8]. Zot O‘zbekiston SSR, Tojikiston SSR va Qoraqalpog‘iston ASSRda boqilgan, zot ustidagi naslchilik ishini O‘zbekiston SSRning Jizzax ot zavodi olib borgan [8].

Mustaqillik yillari maqolaning xronologik doirasidan tashqarida, shu bois faqat qisqacha tilga olinadi: O‘rta Chirchiq tumanidagi «O‘zbegim otlari» ot zavodi 1992-yilda tashkil etilgan, axaltaka tulporlarini ko‘paytirishga ixtisoslashgan [11].

Xulosa va takliflar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyoda yilqichilik 1925–1991-yillarda bir tekis rivojlanmagan. 1920-yillarda sohaning poydevori Turkiston respublikasidan qabul qilingan qorabayir yo‘nalishidagi ot zavodi asosida qo‘yilgan va zavod otlari mintaqaviy ipodromlarda O‘rta Osiyoning boshqa zavodlari bilan bellashib, o‘zini oqlagan. 1927–1932-yillarda dala ishlarida traktor ulushining 0,3 foizdan 22 foizgacha oshishi, 1960–1965-yillarda esa Qirg‘izistonda 53,7 foizga, O‘zbekistonda 42,4 foizga kamayish ishchi otga bo‘lgan ehtiyojning pasayishini ko‘rsatadi. 1972-yilga kelib O‘zbekistondagi 117,5 ming bosh ot Qozog‘istondan (1266,1 ming) va Qirg‘izistondan (271,0 ming) ancha kam, Tojikistondan (46,8 ming) esa ko‘p bo‘lgan. Qorabayir zotining ikki respublika uchun rayonlashtirilishi uning mintaqaviy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga O‘zbekistonning ot go‘shti va qimiz ishlab chiqarishdagi ulushi ittifoq hajmiga nisbatan kichik bo‘lgan.

Takliflar: birinchidan, yilqichilik tarixini o‘rganishda respublikalararo qiyosiy tahlilni davom ettirish, ayniqsa Qozog‘iston va Turkmaniston arxiv materiallarini jalb qilish lozim. Ikkinchidan, qorabayir zoti bilan bog‘liq ot zavodlari faoliyatini tarixiy aspektda alohida o‘rganish, zot naslchilik kitoblari ma’lumotlarini birlamchi manbalar bilan solishtirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Мухторов А. З., Тўракулов З. Т. Йилқичилик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 4, 5, 152.
2. Мухторов А. З., Тўракулов З. Т. Маҳсулдор йилқичилик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974. – Б. 4, 5.
3. Холмирзаев Д. Йилқичилик: амалий машғулотлар. – Тошкент: Меҳнат, 1988. – Б. 110.
4. Холмирзаев Д. Научные основы и практические приемы развития продуктивного коневодства в Республике Узбекистан: дис. … д-ра с.-х. наук. – Ташкент, 1996. – С. 82, 266.
5. O‘zMA R-9- fond, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 458, Б. 119, об121 , 123, 125, 126, 127, 128, 130.
6. O‘zMA R-90-fond , ro‘yxat 8, yig‘ma jild 5403, Б. 22, 75.
7. O‘zMA R-10 fond, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 789, Б. 3, 5, 6.
8. Щекин В. А. Карабаирская порода // Большая советская энциклопедия. – URL: https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/058/864.htm
9. Нурматов А., Хафизов И. Карабаирская порода лошадей – «золотой фонд» Узбекистана // Вестник Ошского государственного университета. – Ош, 2024. – URL: https://journal.oshsu.kg/index.php/agriculture/article/view/1835
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.
11. Yilqichilik va ot sporti rivojlanmoqda // O‘zbekiston milliy axborot agentligi (UzA). – 2017, 21-iyul. – URL: https://uza.uz/ar/posts/yilqichilik-va-ot-sporti-rivojlanmoqda-21-07-2017
12. Щекин В. А., Вихрев В. С. Карабаир. – Ташкент, 1947 .

13. Лихов К. А. Государственная племенная книга карабаирской породы. Т. IV. – Ташкент: Узбекистан, 1982 .
14. Shavkat Mirziyoyev yilqichilik va ot sportini rivojlantirish bo‘yicha qarorni imzoladi // Zamin.uz. – URL: https://zamin.uz/uz/jamiyat/22255-shavkat-mirziyoev-yilqichilik-va-ot-sportini-rivojlantirish-buyicha-qarorni-imzoladi.html